

Farg‘ona davlat universiteti,  
adabiyotshunoslik kafedrası  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD) R.Umurzakov taqrizi  
ostida

Dilrabo Tilloxo‘javeva  
FarDU magistranti  
[tilloxojaveva@gmail.com](mailto:tilloxojaveva@gmail.com)  
+998911301496

---

## **BADIIY ASARDA MUALLIFNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI (ILK JUMLA)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yozuvchilarning so‘z qo‘llash mahorati, badiiyati, asarga ko‘rsatgan ta‘siri, uning ilk jumlada (sarlavha, epigraf, so‘z boshi) namoyon bo‘ishi haqida gap boradi. Bundan tashqari so‘z qo‘llash mahorati borasida jahon va o‘zbek adabiyotshunos olimlarning qarashlari ham tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** So‘z qo‘llash mahorati, ilk jumla, hikoya, kompozitsiya, asar qurilishi, g‘oya, iste‘dod, Aristotel, Fitrat, Abdulla Qahhor.

---

## **АВТОРСКОЕ УСЛОВИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЛОВА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ (ПЕРВОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ)**

**Аннотация.** В данной статье говорится об умении писателей пользоваться словом, художественности, влиянии на произведение и его проявлении в первом предложении (заголовке, эпиграфе, начале слова). Кроме того, анализируются взгляды мировых и узбекских литературоведов на мастерство употребления слова.

**Ключевые слова:** Умение пользоваться словами, первое предложение, рассказ, композиция, построение произведения, идея, талант, Аристотель, Фитрат, Абдулла Каххор.

---

## **AUTHOR'S CONDITION FOR USE OF THE WORD IN A WORK OF ART (FIRST SENTENCE)**

**Abstract:** This article talks about the writers' ability to use words, artistry, influence on the work and its manifestation in the first sentence (title, epigraph, beginning of the word). In addition, the views of world and Uzbek literary scholars on the mastery of the use of words are analyzed.

**Key words:** Ability to use words, first sentence, story, composition, structure of a work, idea, talent, Aristotle, Fitrat, Abdullah Kahhor.

---

Har qanday badiiy asarning shakl va mazmuni birligini ifodalovchi, boshqa asarlardan ajralib turishini ko‘rsatuvchi yetakchi jihatlari bo‘ladi. Bunga nutq, kompozitsiya, syujet, obraz, g‘oya, uslub, janr, so‘z tanlash mahorati kabilarni kiritish mumkin. Yuqoridagi jihatlardan so‘zni to‘g‘ri qo‘llay bilish mahorati yozuvchidan o‘ziga xos mahoratni talab etadi.

So‘z – bu qudratli kuch demak. Uni to‘g‘ri ishlata olganlar, samarali qo‘llay olganlar qudratli kuchning sohibi hisoblanadi. Badiiy asar tili esa ana shu so‘zlarning emotsionalligini yanada oshiruvchi, kishi ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazuchi asosiy vositadir. Muallif yozgan har qanday

asarning muvaffaqiyati ham soʻzlarning tanlanish mahoratiga bogʻliq. Aristotel aytganidek: “Tuban boʻlmagan, tushunarli nutq qimmatli nutqdir. Eng tushunarlisi hamma ishlatadigan soʻzlardan tuzilgan nutqdir” [1.44-45]. Darhaqiqat, faylasuf fikrini mushohada etadigan boʻlsak, oʻrinsiz qoʻllanmagan, omma uchun tushunarli va soʻzlashuvdagi soʻzlardan foydalana bilish, badiiy asarning qadr-qimmatini yanada oshiradi, bundan tashqari kitobxonlar orasida tez yoyilishiga sabab boʻladi. Ammo bu kabi soʻzlardan foydalanib qolmasdan, badiiy asar tiliga xos boʻlgan badiiy uslub vositalari, tasviriy mantlardan samarali foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Ikki uslubni ishonarli holatda qorishtirish asar badiiyatini kuchaytiradi. Yunon faylasufi Aristotel oʻzining “Poetika” nomli asarida bunga alohida toʻxtalib oʻtadi. Uning fikriga koʻra badiiy uslubdagi soʻzlar noyob soʻzlar sirasiga kiradi. “Noyob soʻzlar varvarizimni yuzga chiqaradi. Shunday ekan, bu ifodalarni qanday boʻlmasin, qorishtirish lozim: bir tomondan noyob, koʻchma maʼnodagi bezak va boshqa qayd qilingan soʻzlar nutqni siyqa va tuban boʻlishdan saqlasa, boshqa tomondan koʻp qoʻllanadigan soʻzlar (unga) aniqlik kiritadi” [1. 44-45].

Aristotelning fikriga oʻxshash tarzda Fitrat ham soʻz tanlash mahorati deb toʻxtalmasa-da, soʻzni toʻgʻri qoʻllash, asar ifodasi asosiy oʻrinda turishi va bu bir uslub ekanligini taʼkidlab oʻtadi: “Ijodning birinchi natijasi asarning mavzuyi ikkinchi natijasi asarning mundariyasi boʻladir. Mana shu yumushlar bilan yozgʻuchi-adibning zehnidagi mavzu ham u toʻgʻrida maʼlumot belgisi bir tilning soʻzlari, gaplari bilan ifoda etishi kerakdir. Shul ifoda etish bilan asar maydongʻa keladi. Yozgʻuchining zehnidagi yigʻilgʻan mavzu ham u toʻgʻrida tartibga solingʻan maʼlumot, soʻzlar, gaplar bilan ifoda etilmaganga asar sanalmaydir” [2. 16-17]. Demak, asar sanalishi uchun soʻzlar, gaplar ifoda uslubiga ega boʻlishi va bu yozuvchining mahoratiga bogʻliq boʻlishi haqida gap bormooqda. Ana shunday yozuvchilardan Fitratning oʻzi ham misollar keltiradi: “Bu kun Elbek, Choʻlpon, Botu, Qodiriy, Sh. Sulaymon kabi oʻzbek adib-shoirlari bor. Bularning ifodalari, albatta, oʻzbekchadir. Biroq, u adib-shoirlarimizning asarlari oʻqulgʻanda ifodalarining bir-biridan oʻzgacharak boʻlgʻani koʻrunib turadi. Demak, bulardan har birining oʻziga maxsus bir ifoda yoʻsuni bor. Mana shul ifoda yoʻsunigʻa uslub deyiladi” [2. 16-17]. Olim oʻz fikrlarini izohlar ekan, shoir va yozuvchilar orasida ayni bir mavzu, bir voqea haqida yozadiganlar boʻlishi, ammo ularning uslubi yaʼni soʻz tanlashdagi mahorati boshqa-boshqa ekanligini taʼkidlaydi: “Eski adabiyotimizda «Layli-Majnun» dostoni bor. Buni fors shoirlari, turk shoirlari necha daʼfalar yozgʻanlardir. Hammasida hikoya birdir va voqea bir turlidir. Biroq forscha-turkcha bilgʻan bir kishi ulardan forsiylardan Nizomiyni, ondan keyin Jomiyni oʻqiydi. Xusravgʻa kelgach, Navoyini albatta ularga tarji qiladi. Fuzuliyni koʻrgach, Navoyining «Layli-Majnun»ini tokchaga qoʻyub, Fuzuliyni oʻqishgʻa majbur kabi boʻladir. Mana bular uslubning ishidir” [2. 16-17].

Til uslubi, uni qoʻllash isteʼdodi, asar mazmuni haqidagi fikrlar keyingi davrlarda ham yozuvchilarning diqqat markazida boʻldi. 60-yillar oʻzbek adabiyotida katta iz qoldirgan Abdulla Qahhor ham sanʼat asarining asosiy sharti boʻlgan til bilan mazmunning yaxlit boʻlishini taʼkidlab, jumlada, shunday yozgan edi: “Adabiy asarning joni-uning mazmuni, lekin bu jonning jon boʻlishi uchun jasad ham kerak. Jonni jasadsiz tasavvur etish mumkin emas”. Boshqa bir oʻrinda bu fikrni yana-da aniqlashtirib, “Kitobning oʻqishli boʻlishi avtorning kitobxonga aytadigan toʻla magʻizli va juda zarur fikri boʻlganini koʻrsatadi”. Darhaqiqat, isteʼdodli, masʼuliyatli yozuvchilar mukammal mazmun yaratish maqsadida asar tilidagi har bir jumla, soʻz va hatto ayrim tovushlarigacha ham eʼtibor berishlari ular uchun badiiy ijodning oltin qonuniyatlaridan biriga aylangan edi. A. Qahhorga siz qanday ishlaysiz deb savol bergan bir adabiyotshunosga javoban u shunday degan edi: “Men yozilgan sahifani, hatto jumlaning ham ustidan tuzata olmayman. Jumla, hatto, butun sahifadagi bir soʻzni oʻchirib, boshqa yozish uchun boshqa qogʻozga oʻsha jumla, hatto sahifani koʻchirib yozaman. Bir sahifani oʻrta hisob bilan 15-16 marta koʻchiraman, shubhasiz, har safar sahifaga sayqal

beraman”. So‘z tanlay olish nafaqat mahoratni, balki muallifdan mashaqqat, sabr-toqatni talab etadi.

So‘z tanlash mahorati asar davomidagina sezilib qolmay, uning ilk jumlasida (sarlavha, epigraf, so‘z boshi, birinchi jumla) ham sezilib turadi. Chunki boshlang‘ich nuqta yozuvchidan jasorat va iste‘dodni talab etadi. Birinchi jumla bilan muallif o‘z so‘zini ayta bilishi, asarning qisqacha g‘oyasi va mazmuni bilan o‘quvchini tanishtirishi kerak bo‘ladi. “Yaxlit ritmning ibtidosi so‘zlar va marom aro moslik ilk jumladan boshlanadi. Shuning uchun ayrim san‘atkorlar birinchi jumla qiyinchiligidan noliydilar. Birinchi jumla va‘da: muallif nimalar haqida gapirmoqchi, qanday sirni ochmoqchi, e‘tiborni nimaga qaratmoqchi- asarning hamma joyidan bu jumla ruhi sezilib turadi” [5. 16-17] Shu sababli yozuvchi ilk jumlaning to‘g‘ri tanlay bilishi va uni asar davomida shakllantira olishi muhim hisoblanadi. Badiiy asardagi ilk jumla-uzoq davom etadigan ohangning boshlanishi. Birinchi satr –jumboq, ayni paytda, asar “kaliti” . Asar boshlanishi – kitobxoniga berilgan vazifa , topshiriq. Mana shu vazifalar ilk jumlar mas‘uliyatini orttiradi . Yozuvchi barcha tomonlar aro yaxlitlikni topolmas ekan, ilk jumlaning ya‘ni so‘z boshini yoza olmaydi. Ilk jumla muloqotning ibtidosi, qahramon hamda kitobxonning g‘aybona uchrashuvi, kompozitsion sathning muhim belgisi. Keyingi holatu vaziyat, dialog-u monolog debochasi. Mavzu, muammolar borasidagi ilk taassurot, bu keyingi bosqichga ko‘tarilish, faollikni jadallashtirish jarayoni. [6.92]

Fransuz adibi Alber Kamyu o‘zining “Vabo” asaridagi Gran obrazi timsolida ijod jarayoni, birinchi jumla mas‘uliyati xususida batafsil fikr yuritadi: “Mayning ajoyib tongida Bulon o‘rmonining gullagan hiyobonlaridan zebo Amazonka qoyilmaqom to‘riqni choptirib ketayotgan edi...”. Ushbu jumlaning yozuvchi asarda takror va takror tahrir qilib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: “...Hali bularning hammasi ancha taxminiy. Qachonki, jumlalarda xayolimda yashayotgan manzarani bekamu ko‘st aks ettirsam, qachonki, jumlamim-aniq hamohang bo‘lib jaranglasa, shunda qolganlari oson ko‘chadi, eng asosiysi , birinchi jumlaning ta‘siri shunday zo‘r chiqadi”[7.17] Demak, ilk jumla, avvalo, ijodkor psixologiyasiga aloqador bo‘lib, yozuvchining iste‘dodi bilan bog‘liq jarayondir.

Ilk jumlaning faqatgina so‘z boshi deb qarab qolmasdan, balki unga sarlavha, epigrafni ham kiritib bo‘ladi. Chunki muallif ularda ham asarning ma‘lum bir mazmunini, g‘oya va kompozitsiyasini kiritadi. Yaratilgan asar sarlavhasi bir yoki bir necha so‘z bilan ifodalanishi va yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o‘zida aniq jamlay olishi, nomlanishidayoq o‘quvchini o‘ziga jalb qila olishi kerak, bu uning asosiy vazifasidir. “Sarlavha asar predmeti topilishida muhim ochqich, kalit. U asar turi va aniqlanadigan struktura bilan uzviy bog‘liq” [6.92]. Sarlavha asardagi asosiy ma‘no qatlamiga ishora berib, muallif bilan kitobxonning ichki muloqotini jadallashtiradi. Unda borliqdagi nabotot, hayvonot, osmondagi jismlar nomi keltirilib, tasviriylik, ifodaviylik darajasini orttiradi.

Sarlavha asosiy nuqtani ulug‘lab, ma‘lum ma‘noda asarning qabul qilinishini boshqaradi. Ijodkor sarlavha tanlar ekan, ana shu birgina jumlada uning asar haqidagi qarashlari jamlanadi. Jumladan, Abdulaa Qahhorning “Dahshat” hikoyasi o‘z nomi bilan daxshat. Sarlavhani o‘qir ekansiz, hayoliy dunyoyingizga qo‘rqinchli voqealar kelishi mumkin. Asarning sarlavhasi ham uning mazmunini yoritadi ham o‘quvchiga uni jumboq qilib beradi. Yozuvchi sarlavha orqali o‘quvchini voqealar jarayoniga tayyorlab boradi. Ayrim mualliflar birinchi jumlaning tabiat tasviri, qahramonlar tavsifi yoki shunga o‘xshash tasvirlar bilan boshlaydi. Buning sababi ham kitobxonni asarga ruhiy tayyorlashdan iboratdir. Hikoyaning boshlanish nuqtasi “Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvullaydi.”[7.76] Ushbu jumla orqali ko‘z o‘ngingizda sovuq qishga qarab ketayotgan kuz,

barglarisiz yaydoq qolgan daraxt va daxshatli shamol gavdalanadi. Asarning fojeaviy kechadigan mazmunini shu jumlaning o'zidan ham tasavvur qilsak bo'ladi.

Biz ko'rib chiqayotgan bu masala adabiyotshunoslik oldida yechilishi va o'rganilishi zarur bo'lgan ishlardan biri sanaladi. Keying ilmiy ishlarimizda ham masalaning boshqa tomonlarini ko'rib chiqamiz va tahlil etamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aristotel. Poetika (Poeziya san'ati haqida).-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. A.Fitrat. Tanlangan asarlar.-Toshkent: Ma'niyat, 2009.
3. Arxiv qo'lyozmalari va xotiralar asosida maqolalar to'plami. Abdulla Qahhor: shaxs va ijodkor.-Toshkent: Tamaddun, 2013.
4. Abdulla Qahhor. Bir xatga javob/Yoshlar bilan suhbat. –Toshkent. Yosh gvardiya, 1968.
5. L.Qayumov. Xotiralar.- Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2005.
6. U. Rasulova. Badiiy asarda sarlavha poetikasi (maqola).-Toshkent: O'zbekiston til va adabiyot jurnali, 2022
7. Хамроев К. Хозирги ўзбек ҳикоясида композиция поетикаси.-Тошкент-2018
8. Abdulla Qahhor. Anor.-Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2012